16	MTTda asosiy harakat mashqlari.	Maktabgacha yoshdagi bolalar organizmini rivojlanishi va o'sishida asosiy harakatlarning ahamiyati. Umumiy xarakteristika. Asosiy harakatlar turlari (yurish, yugurish, emaklab yurish, sakrash, uloqtirish, va muvozanat saqlash). Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy harakat mashqlarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya yo'riqchisining rahbarligi.	2	N,A	2
17	Yurish va yugurish mashqlarini ahamiyati va o'tkazish uslubi	Yurish va yugurish mashqlarining har bir harakatini bajarish texnikasi. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturibo'yicha tahlili.	2	N	2
18	Sakrash va tirmashib chiqish mashqlarini ahamiyati va o'tkazish uslubi	Sakrash va tirmashib chiqish mashqlarinig har bir harakatini bajarish texnikasi. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi bo'yicha tahlili.	2	N	
19	Emaklash va muvozanatni saqlash mashqlarini ahamiyati va o'tkazish uslubi	Emaklash va tirmashib chiqish mashqlarinig har bir harakatini bajarish texnikasi.	2	N	2

		“Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi bo’yicha tahlili.			
20	MTT da asosiy harakat mashqlari	MTT da asosiy harakat mashqlari	2	N	
21	MTTda umum rivojlantiruvchi mashqlar	MTTda umum rivojlantiruvchi mashq turlari va uni o’tkazishga qo’yilgan talablar. Umum rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishda bolalarni to’g’ri nafas olishga o’rgatish. Mashqlarni bajarishda jismoniy tarbiya yo’riqchisining rahbarligi.	2	N,A	2
22	Buyumlar va buyumlarsiz o’tkaziladigan umum rivojlantiruvchi mashqlar	MTTda buyumlar bilan va buyumlarsiz o’tkaziladigan umum rivojlantiruvchi mashqlarni ahamiyati. Buyumlar va buyumlarsiz bajariladigan umum rivojlantiruvchi mashqlarga jismoniy tarbiya yo’riqchisining rahbarligi.	2	N	
23	Kichik va o’rta guruhlarda umum rivojlantiruvchi mashqlarni o’tkazish va ishlanmasini tuzish	Kichik va o’rta guruhlarda umum rivojlantiruvchi mashqlar tanlash va o’tkazish texnikasi. Umum rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishda to’g’ri nafas olish va chiqarish.	2	A	2
24	Katta va tayyorlov guruh bolalari bilan umum rivojlantiruvchi mashqlarni o’tkazish va ishlanmasini tuzish	Katta va tayyorlov guruh bolalari uchun gavdaning turli qismlariga mos mashqlar tanlash va o’tkazish. Mashqlarni bajarishda dastlabki holatlarni to’g’ri egallash. Umum rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishda to’g’ri nafas olish va chiqarish	2	A	
25	MTTning turli guruhlarida umum rivojlantiruvchi mashqlar	MTTning turli guruhlarida umum rivojlantiruvchi mashqlar	2	N	
26	MTTda harakatli o’yinlar	MTTda harakatli o’yinlarning ahamiyati. Harakatli o’yin turlari. Harakatli o’yinni tashkil qilish. Harakatli o’yinni o’tkazishda jismoniy tarbiya yo’riqchisining	2	N,A	2

		rahbarligi.			
27	Kichik va o'rtta guruhlar uchun harakatli o'yinlar tanlash va o'tkazish	"Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosidakichik va o'rtta guruhlar uchun harakatli o'yinlarni tanlash va o'tkazish	2	N	2
28	Katta va tayyorlov guruh bolalari uchun harakatli o'yinlar tanlash va o'tkazish	"Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida katta va tayyorlov guruhlar uchun harakatli o'yinlar-. musobaqali, o'yin –estafetali, sport o'yinlarini tanlash va o'tkazish.	2	N	
29	MTTning turli guruhlarida harakatli o'yinlar	MTTning turli guruhlaridaharakatli o'yinlar	2	N	
30	O'zbek milliy harakatli o'yinlarining kelib chiqish tarixi va ahamiyati	O'zbek milliy harakatli o'yinlarni rivojlanish tarixi. Ularning bolalar tarbiyasiga va rivojlanishiga ta'siri. O'zbek milliy harakatli o'yinlarini o'tkazish uslubi.	2	N	2
31	Turli yosh guruhlarda o'zbek milliy harakatli o'yinlarning kelib chiqish tarixi va ahamiyati	Turli yosh guruhlarda o'zbek milliy harakatli o'yinlarning kelib chiqish tarixi va ahamiyati.	2	N	
32	Turli yosh guruhlarda sport elementi bo'lgan o'yinlarni ahamiyati	MTTda sport mashqlarini ahamiyati. Turlari(velosi'edda,samokatda va g'ildirakli kon'kida yurish) o'rgatish. Yo'l harakati qoidalariga rioya qilishga o'rgatish.Suzish.suvdagi harakatni o'ziga xosligi. Qishki va yozgi sport mashqlari.	2	N	2
V-bo'lim . MTT da jismoniy tarbiya ish shakllarini tashkil etish					
33	MTTda jismoniy tarbiya ish shakllarini tashkil etish. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari	MTTda jismoniy tarbiya ish shakllarini tashkil etish.Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarni tuzilishi va mazmuni. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kun tartibida tutgan o'rne. Yilning turli fasllarida jismoniy mashg'ulotlarni o'tkazishga qo'yilgan talablar.	2	A	
34	Kichik va o'rtta guruh bolalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlar ishlanmasini	Kichik va o'rtta guruh bolalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulot ishlanmasini tuzish va tahlil qilish.	2	N	2

	tuzish				
35	Kichik va o'rtta guruh bolalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotini o'tkazish	Kichik va o'rtta guruh bolalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotini amalda o'tkazish.	2	A	
36	Katta va tayyorlov guruh bolalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulot ishlanmasini tuzish	Katta va tayyorlov guruh bolalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotini tuzish, mazmuniga doir uslubiy ko'rsatmalar berish	2	N	2
37	Katta va tayyorlov guruh bolalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotini o'tkazish	Katta va tayyorlov guruh bolalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotini tuzish, mazmuniga doir uslubiy ko'rsatmalar berish	2	A	
38	MTTning turli guruhlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari	MTTning turli guruhlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari.	2	N	
39	Jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazish uslubi va ularning ahamiyati	Jismoniy tarbiya daqiqalari. Jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazish uslubi. Jismoniy tarbiya daqiqalarining ahamiyati	2	N	2
40	Ochiq havoda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlar	Ochiq havoda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar. Ochiq havoda o'tkaziladigan jismoniy mashqlar. Ochiq havoda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlar uchun maydonchalarni jihozlanishi.	2	N,A	
VI-bo'lim.MTTda jismoniy tarbiya ishlarini rejalashtirish va hisobga olish					
41	MTTda jismoniy tarbiya ishlarini rejalashtirish va uning turlari	MTTda jismoniy tarbiya ishlarini rejalashtirish va uning turlari. Jismoniy tarbiya ishlarini olib borish va hisobga olish. Yillik, oylik, haftalik ish rejalari.	2	N	2
42	MTTda jismoniy tarbiya ishlarini rejalashtirish	MTTda jismoniy tarbiya ishlarini rejalashtirish	2	N	
43	Jismoniy tarbiya ishlarini olib borish va hisobga olish	MTTda jismoniy tarbiya ishlarini olib borish. Dastlabki hisobot. Kundalik hisobot. Yakuniy hisobot	2	A	2

VII -bo'lim. Kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlari					
44	MTTning kun tartibidagi ertalabki badantarbiya	Ertalabki badantarbiya ahamiyati, hamda ularning maktabgacha ta'lim muassasalarining kun tartibidagi o'rne. Ertalabki badantarbiya tuzilishi, mazmuni Jismoniy mashqlarni tanlash . jismoniy jihozlar (bayroqcha, tayoqcha, halqacha boshqalar...)dan foydalanish. Kom'lekslar tuzish . kom'lekslar o'tkazish davomiyligi va ularni almashtirib turish	2	N	
45	Kichik va o'rta guruhlarda ertalabki badantarbiya mashqlarini tuzish va o'tkazish	Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirishda ertalabki badan tarbiyani ahamiyati.Kichik va o'rta guruhlarda ertalabki badantarbiyani o'tkazishga qo'yilgan talablar. Ertalabki badan tarbiyani o'tkazishda jismoniy tarbiya yo'riqchisining rahbarligi.	2	N	2
46	Katta va tayyorlov guruhlarda ertalabki badantarbiya mashqlarini tuzish va o'tkazish	Katta va tayyorlov guruhlarida ertalabki badan tarbiyani tanlash va amalda o'tkazish	2	A	
47	MTTning turli guruhlarida ertalabki badantarbiya mashqlari	MTTning turli guruhlarida ertalabki badantarbiya mashqlari	2	N	
48	Sayr va ekskursiyalarni o'tkazish metodlari	Sayr va ekskursiyalarni o'tkazish va unung mazmuni.Sayr va ekskursiyalarning ahamiyati.	2	N	2
49	Bolalarning mustaqil harakat faoliyati. Bolalarnig bo'sh vaqtlarini tashkil etish	MTTda bolalarning mustaqil harakat faoliyati uchun yaratilgan shart sharoitlar. MTTlarda bolalarnig bo'sh vaqtlarini rejalashtirish va amalga oshirish	2	N	
50	MTTda jismoniy tarbiya bayramlarini o'tkazish metodlari	MTTda jismoniy tarbiya bayramlarini o'tkazish MTTda jismoniy tarbiya bayramlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish.Bayram senariylarini tuzish	2	N	2
VIII-bo'lim.Yozgi sog'lomlashtirish davrida anjom va jihozlar					
51	MTT da jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish uchun kerakli jihoz va inventarlar	MTT da jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish uchun kerakli jihoz va inventarlar. Guruh xonalari , zal va	2	N	

		maydonni jihozlash			
52	Guruh xonalari, zal va maydonchalarni jihozlash	MTT da jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish uchun kerakli jihoz va inventarlar. Guruh xonalari , zal va maydonchani jihozlash.	2	A	2
IX-bo'lim. MTT xodimlarining yozgi sog'lomlashtirish davrini samarali tashkil etishdagi asosiy vazifalari					
53	Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uslubi	Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlari.Yozgi sport mashqlarining turlari. Yozgi sport mashqlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar	2	N	
54	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya ustida tibbiy nazorat	MTTlarida jismoniy tarbiya ustida tibbiy nazorat o'tkazishning maqsad va vazifalari.Tibbiy nazoratda jismoniy tarbiya yo'riqchisining rahbarligi. MTTda jismoniy tarbiya ishlarini tibbiy nazorat qilishda ma'sul shaxslar.	2	N	
55	MTT da jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish uchun ma'sul shaxslar	MTT da jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etishda mudira va uslubchining vazifasi. MTT da jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etishda jismoniy tarbiya yo'riqchisi, shifokor va musiqa rahbarining vazifasi.	2	N	2
56	Issiq iqlim sharoitida bolalarni jismoniy tarbiyalash	Issiq iqlim sharoitida bolalarni jismoniy tarbiyalash. O'zbekiston iqlimining o'ziga xos xususiyatlari.	2	N	
57	Chiniqtirish. Chiniqtirishning asosiy tamoyillari	Chiniqtirish. Chiniqtirishning asosiy tamoyillari.Chiniqtirishning ahamiyati.Havo vannalari, suv vannalari, quyosh vannalaridan foydalanish.	2	N	2
58	MTTning turli guruhlarida chiniqtirish	MTTning turli guruhlarida chiniqtirish	2	N	
X-bo'lim. Yozgi mavsumda sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish					
59	Turli guruhlarda yozgi sog'lomlashtirish ish rejasini tuzish	Sport mashqlarining tasnifi.Yozgi sport mashqlarining o'tkazish metodlari Turli guruhlarda yozgi sog'lomlashtirish ish rejasini tuzish	2	N	
60	Turli guruhlarda yozgi	Turli guruhlarda yozgi mavsumda	2	A	2

	mavsumda sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish	sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish. Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarloyhasini tuzish.			
	Jami		120		60

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi. Baholash usullari og'zaki, yozma, test, individual vazifalar, kichik guruhlar tomonidan bajarilgan to'shiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va to'shiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

Foydalanilgan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar, elektron ta'lim resurslari hamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yhati

11. Sh. M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda bar'o qilamiz. 2017
12. Sh. M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar kundalik faoliyatining qoidasi bo'lishi kerak. 2017
13. Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajakni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. 2017
14. "Sog'lom avlod dasturi". Qo'llanma. – T.; 2000
15. Mahkamjonov. M. K. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". Ma'ruza matni. Qo'llanma. – Toshkent.: 2002.
16. A.V. Keneman, D.V. Xuxlayeva. "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi". Darslik. – T.: O'qituvchi, 1998.
17. A.K. Atoyev "Farzandingiz barkamol bo'lsa". Qo'llanma. -Toshkent,; 1990.
18. A.N. Normurodov. "Jismoniy tarbiya". Qo'llanma. - O'zbekiston, 1998.
19. "3 yoshgacha bolalar uchun gimnastika, massaj va o'yinlar". Qo'llanma. -Toshkent.: 1998.
20. T.S. Usmonxo'jayev, S.G. Arzumanov, B.A. Qodirov. "Jismoniy tarbiya". Qo'llanma. 2003.
21. L.I. Inzullayeva. "5-6 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg'uloti". Qo'llanma. - O'qituvchi nashriyoti.: 1992.
13. O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari". Toshkent-2018 yil
14. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi Toshkent-2018 yil
15. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni T.2020 y
16. R. Salomovvaboshqalar. Maktabyoshdagibolalarjismoniytarbiyasiuslubiyatiasoslari. Vneshivestrom. 2013
16. R. Salomovvaboshqalar. Maktabyoshdagibolalarjismoniytarbiyasiuslubiyatiasoslari. 2010

17. M.XTadjiyeva , S.I.Xusanxodjayeva . Jismoniytarbiyanazariyasivametodikasi. Toshkent-2014 yil

18.Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi jurnali.

19.“Ilk qadam” jurnali

Internet manbaalari

1. [www. "ZiyoNET"](http://www.ziyoNET)
2. www.edu.uz.
3. [htt's//www.resobr.ru](http://www.resobr.ru) article 633
4. [htt's://www.maam.ru](http://www.maam.ru) detskijasad; [htt's://www.7ya.ru](http://www.7ya.ru) article
5. [www. td'u-INTRANET](http://www.td'u-INTRANET). 'ed.
6. [www. referatlar.uz](http://www.referatlar.uz)
7. "MTT xujjatlari va ko'rgazmalari" telegram kanali @bogchamfaxrim.
8. www.jlmt.uz
9. [9.htt's://mdou62.edu.yar.ru](http://mdou62.edu.yar.ru) 'DF

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIM
BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIMNING

0110300 – “Jismoniy madaniyat” yo'nalishi

40110301 – “Jismoniy tarbiya va sport” kasbi bo'yicha

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA HARAKATLI O'YINLAR FANIDAN

O'QUV DASTURI

Kvalifikatsiyalar nomi:	Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisi
O'quv rejadagi tartib raqami:	2.3.3
Ajratilgan soat:	108

Toshkent – 2022

O`quv dasturi pedagogik innovatsiyalar, professional ta`limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti pedagogika 110 000 sohasi yo`nalishlari bo`yicha o`quv metodik birlashmasining 2022 yil " 29 " avgustdagi 6- sonli majlis bayoni bilan ma`qullangan.

O`zbekiston Respublikasi Oliy, o`rta maxsus va professional ta`lim yo`nalishlari bo'yicha o`quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig`ilishida ma`qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.**

Tuzuvchilar: Xo`jamberdiyeva Umida Sulaymonovna Angren pedagogika kolleji O`quv va tarbiyaviy ishlar bo`yicha direktor o`rinbosari.

Baratov Baxtiyor Barat o`g`li Angren pedagogika kolleji Ishlab chiqarish ta`limi bo`yicha direktor o`rin bosari

Taqrizchilar: Jumanov Ortug`mat Sangilbayevich Jismoniy tarbiya va sport bo`yicha mutaxasislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Instituti "Jismoniy tarbiya, sport nazaryasi va uslubiyoti" kafedrasi mudiri.P.f.n professor

O'quv dasturining umumiy talablari

Dastur nomi	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlar
Ajratilgan soat	108
Mavzular soni	44
Dasturning maqsadi	<p>Sport turlari bo'yicha hakamlik qilish va uni o'qitishda o'quvchilar nazariy bilim saviyasini oshirib borishi va uni amaliy mashg'ulotlar bilan birgalikda bog'lab olib borish. Sport o'yinlarining kashf etilishi, O'zbekistonning rivojlanish tarixini o'rganish. Har bir sport o'yinlari turida hakamlik ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Gigienik qoidalarga rioya qilishga o'rgatib borish. Sport o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish, texnik-taktika, o'yin qoidalarini o'rganish va hakamlik qilish. O'quvchilarni o'quv me'yorlariga tayyorlab malakalarini oshirish.</p> <p>“Jismoniy tarbiya va sport” to'g'risidagi qonunlar, sport o'yinlari to'g'risidagi qonunlarni o'rganib chiqish. Sport turlari bo'yicha hakamlik qilish va uni o'qitish kursini o'qitish mazmuni. O'quvchilar jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, sport to'garaklarida ishtirok etish. Ommaviy sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish, sport turlaridan musobaqalar, har xil o'yinlar tashkil etish va hakamlik qilish .</p>
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	<p>-Harakatli o'yinlarning kelib chiqish tarixi. Pedagogik ta'rif nomasi, axamiyati, maksadvazifalari. Harakatli uyinlar uslubivaunitashkilkilish. Mashgulot va mashgulot ishlanmalarini tuzishni Maktabda katta tanaffuslarda uynaladigan harakatli uyinlarni tashkil kilish shakllari va utkazish metodikasi. Kichik maktab yoshidagi, kichik usmir, usmirlar va kizlar uchun maktabdan tashkari utkaziladigan harakatli uyinlarni tasnifini Sport uyinlari elementlari bulgan harakatli uyinlar.</p> <p>-Harakatli uyinlarni bolalarni yoshi, jinsi vaj ismoniy tayyorgarligiga karab tanlash, uyin jarayonida yuklamani taksimlash va uynovchilarni xulkini kuzatish. Sport uyinlari elementlari bulgan harakatli uyinlarni ta'limiy, tarbiyaviy, gigienik va soglomashtiruvchi axamiyatini bilish</p>
Bilimlar	<p>-Harakatli uyin va milliy uyinlarini paydo bulish tarixi.</p> <p>-Sharkallomalari xalk uyinlari xakida.</p> <p>Uzbekiston Respublikasida harakatli uyinlarni rivojlanishi va olib borilayotgan ishlar.</p> <p>Shugullanuvchilarning kuch, tezkorlik, chakkonlik, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalovchi harakatli uyinlarini tashkilkilish metodikasi. –Umumiy jismoniy tayyorgarlik va jismoniy sifatlarini takomillashtirishda harakatli uyinlarni axamiyati va tutganurni.</p> <p>-Harakatli va milliy xalkuyinlarini tashkil kilish va utkazish uslubiyatlari. – Harakatli uyinlarning gigienik va soglomashtiruvchi axamiyati.Maktabdan tashkari ishlarda bolalar bilan harakatli uyinlar utkazish mustakil bajarish kunikmalariga ega bulishi kerak</p> <p>-Sport turlari bo'yicha hakamlik qilishni nazariy bilimlarini egallash;</p>

	<p>-Sport turlari bo'yicha hakamlik qilish texnik – taktikasini o'rganish;</p> <p>-o'quv amaliyotidan vazifalarni bajarishga tayyorlash.</p> <p>-har bir sport turining musobaqa qoidalarini o'rganish.</p> <p>-hakamlik qilish.</p>
Ko'nikmalar	<p>-Harakatli uyin va milliy uyinlarini paydobulish tarixi.</p> <p>-Sharkallomalarixalk uyinlari xakida.</p> <p>Uzbekiston Respublikasida harakatli uyinlarni rivojlanishi va olib borilayotgan ishlar.</p> <p>Shugullanuvchilarning kuch, tezkorlik, chakkonlik, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalovchi harakatli uyinlarini tashkilkilish metodikasi.</p> <p>-Umumiy jismoniy tayyorgarlik va jismoniy sifatlarni takomillashtirishda harakatli uyinlarni axamiyati va tutganurni.</p> <p>-Harakatli va milliy xalk uyinlarini tashkil kilish va utkazish uslubiyatlari.</p> <p>-Harakatli uyinlarning gigienik va soglomashtiruvchi axamiyati.</p> <p>Maktabdan tashkari ishlarda bolalar bilan harakatli uyinlar utkazish mustakil bajarish kunikmalariga ega bulishi kerak</p> <p>-maydonda harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirish;</p> <p>-maydonda to'pni olib yurish, to'pni uzatish va qabul qilish usullariga hakamlik qilish ko'nikma hosil qilish;</p> <p>-mashg'ulot o'tkazish joy va jihazlarini o'rganish, gigienik talablariga rioya qilish</p>
O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fanning nomi	<p>Jismoniytarbiya, Sport o'yinlari, fiziologiya</p> <p>Maxsus fanlar</p>
O'qitishning tashkiliy shakli	<p>N-nazariy ta'lim</p> <p>A-amaliy ta'lim</p> <p>NA- birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar</p>
Dasturga qo'yilgan talab	<p>Majburiy</p>
O'qitish tili	<p>Guruhga tayinlangan dars tili asosida</p>
Baholash tartibi	<p>Joriy baholash tartibiga asoslanib</p>
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	<p>Og'zaki, yozma, test,individual va amaliy topshiriqlar bajarish</p>

2. O'quv dasturi mazmuni

t/r	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O'qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta'lim
1	Harakatli o'yinlarning kelib chiqishi tarixi	Harakatli o'yinlarni to'plash va ularni hayotga tadbiq etish, ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifa yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy tarbiya oldida ham katta mas'uliyat yuklaydi.	2	NA	1
2	Sharq allomalari xalq o'yinlari xaqida	O'zbek xalq o'yinlarining paydo bo'lishi va taraqqiyotini o'rganishda sharqning buyuk mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Umar Xayyom, Amir Temur, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zayniddin Mahmud Vosifiy va boshqa tabarruk zotlar qoldirgan ma'naviy merosni tadqiq qilish hamda amaliyotga tatbiq etish o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir	2	NA	1
3	O'zbekiston Respublikasida Harakatli o'yinlarni rivojlanishi va olib borilayotgan ishlar	O'zbek xalq o'yinlari tarixida birinchi marta milliy o'yin namunalarning bayon etilishi, ularning ta'rifi – tasviri qomusiy allomalardan biri Mahmud Qoshg'ariy qalamiga mansubdir. U bundan 1000 yil burun 6 yil mobaynida Turkistondan Termizgacha, Xazar va Orol sohillaridan Tang'irotda etaklaricha bo'lgan hududda yashagan turkman, o'g'iz, chigil, yag'mo, qirg'iz va boshqa boshqa turkiyzabon xalqlarning tarixi, milliy psixologiyasi, o'lkalar jo'g'rofiyasi, urug', qabila, elatlarining til xususiyatlari, yozma va og'zaki adabiyoti, ko'chmanchi tuyakashlar, yilqichilar, cho'ponlar	2	NA	1

		r, o'troq dehqonlar, bog'bon va kosiblarning tirikchilik usullari, so'z talaffuzlari va turli so'z atamalarini teran o'rganib, "Devonu lug'atit turk", ya'ni "Turkiy so'zlar devoni"ni tuzib chiqdi			
4	MTT tarbiyalanuvchilarining kuch, tezkorlik, chakkonlik, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalovchi Harakatli o'yinlarini tashkil qilish metodikasi.	Tarbiyachining o'yin jarayoniga rahbarlik qilishi metodikasini egallagan bo'lishi o'yinlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Harakatli o'yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh guruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko'nikmalarining <u>rivojlanishi</u> , har bir bola sog'lig'ining ahvoli, o'ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, uyini o'tkazish o'rne, shuningdek bolalar qiziqishlarini o'ziga xos xususiyatlari.	4	NA	2
5	MTT larda saflanish va qayta saflanish elementlari bo'lgan harakatli o'yinlar "Bolalarda qat'iy tartib" "Mehmonga borish"	Bolalar bir kishilik qatorda turadilar. Tarbiyachining "Tarqaling" degan ishorasidan keyin maydon bo'ylab xoxlaganicha tarqalib yurib, quyidagi so'zlarni takrorlaydi: Bolalarda tartib qat'iy Hamma o'z joyini biladi Qani chalivg quvnoq kuyni Tra-ta-ta, Tra-ta-ta Tarbiyachining to'xtang degan ishorasidan keyin yana bir qatorga bo'ylari bilan saflanadi.	2	A	1
6	MTT larda sakrash elementlari bo'lgan harakatli o'yinlar. "Uzoqqa sakrash", "Chambarak ustidan sakrash"	Bolalar teng ikki guruhga bo'linadi. Rahbarning ishorasi bilan turgan joyidan ikki oyoqda deysinib uzunlikka sakraydi. Yerga tushgan joyidan ikkinchi nomerlilar sakraydi. Jami o'yinchilar skrab bo'lgach, to'plangan natijaga qarab g'olib aniqlanadi.	4	A	2
7	MTT larda tezkorlik va chakkonlik elementlari bo'lgan harakatli	Bolalar teng ikki guruhga bo'linadi. Jamoalar qaysi biri kun, qaysi biri tun chek tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Rahbarning "kun"	4	A	2

	o'yinlar. "Kun va tun" o'yini,"Dengiz,o'rmon, botqoq" o'yini.	degan ishorasi bilan "Tun" jamoasi o'z uyiga qochadi. "Kun" jamoasi ularni quvib yetishga harkat qiladi.			
8	MTT larda chidamlilik egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalovchi Harakatli o'yinlarin. "Katta doira estafetasi", "Raqs harakatlari" o'yinlari.	Maydoncha aylanib chiqadigan yugurish yo'lakchasining joylari bayroqchalar bilan belgilab qo'yiladi.Maydoncha markazida marra bayrog'i o'rnatiladi. Qatnashchilar teng to'rtta jamoaga bo'linadi.Tarbiyachining buyrug'i bilan o'yin boshlash ishorasi beriladi. Bu estafetani birinchi bo'lib bajargan jamoa g'olib hisoblanadi.	4	A	2
9	Umumiy jismoniy tayyorgarlik va jismoniy sifatlarni takomillashtirishda Harakatli o'yinlarni ahamiyati va tutgan o'rni	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston- da jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (1999-yil 27- may) faqat sportnigina rivojlantirish, u bilan bog'liq, bo'lgan muammolarni (sport inshootlarini yaxshilash, kadrlar tayyorlash, xalqaro sport anjumanlarida ishtirok etib, g'alaba- larga erishish va h.k.) hal qilish bilan chegaralanadi. Aholining salomat- ligini yaxshilash, o'quvchi-yoshlar va talabalarning jismoniy barkamol- ligini ta'minlash, mehnatkash ishchi-xizmatchi va ziyolilarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish ham muhimdir.	2	NA	1
10	Bolalarning harakatli o'yinlarning tashkilotchisi va rahbari sifatidagi asosiy vazifalari	Jismoniy tarbiya o'qituvchisi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda quyidagi asosiy vazifalarni nazarda tutishi lozim: 1. O'qituvchilarning jismoniy jihatdan normal o'sishlariga, salomatliklarining yaxshilanishiga, chiniqishlariga, organizmlarining va umumiy ish qobiliyatlarining o'sishiga yordam berish. 2. O'quvchilarga harakar faoliyatining xilma-xil sharoitlarida erkin harakat qila olish imkonini beradigan zaruriy bilimlar berish va ularda kerakli harakat malakalari hosil qilish. 3. O'quvchilarda turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy xislatlar tarbiyalash. 4. O'quvchilarda turli o'yinlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, rejimga	2	NA	1

		rioya qilishga qiziqish uyg'otish. 5. O'quvchilarda harakatli o'yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o'tkazish uchun zaruriy bilim va malakalar hosil qilish			
11	Harakatli o'yinlarning gigienik va sog'lomlashtiruvchi ahamiyati	Tizimining muhim bosqichlaridan biri jismoniy vositalardir. Ularning tarkibiy qismi esa gimnastika, sport turlari, harakatli o'yinlar va tabiatning sog'lomlashtiruvchi quyosh, havo, suv, gigienik omillar ta'sir kuchlaridan iborat. Ko'rinib turibdiki, harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi	2	NA	1
12	Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish	Tarbiyachilar, yo'riqchilar harakatli o'yinlarni tashkilotchisi va rahbarlaridir. Biz quyida ular uchun harakatli o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish qoidalari xususida batafsil ma'lumot berib o'tamiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy jihatdan o'qib-o'sishlariga, chiniqishlariga organizm va umumiy ish qobiliyatlarining yanada mustahkamlanishni yordam beradi.	4	NA	2
13	Harakatli o'yinlarni bolalarni yoshiga mos holda o'tkazish	3 yoshli bolalarning harakatlari ma'lum darajada cheklangan bo'lib, ularning diqqati doimo chalg'ib turadi. Shuning uchun bolalarga oddiy va ular oson tushunadigan o'yinlarni o'rgatish kerak. Bunday o'yinlarda qush va xayvonlar yoki ularning rasmlari o'yinchoqlar, ertaklardan foydalanish o'zining ijobiy samarasini beradi. Bu o'yinlar albatta mazmunli va ibratli bo'lishi shart.	2	NA	1
14	Harakatli o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati va mazmuni	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning faoliyati rang-barang bo'lib, ular mustaqil harakatli o'yinlarni o'ynashni yoqtiradilar. O'yin – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatidir. Rossiyalik pedagogi A.S.Makarenko aytganidek, o'yin bola uchun bilish manba'idir. O'yin jarayonida bolalar egallay bilishlari qiyin bo'lgan bilim va ko'nikmalarni osongina o'zlashtirib oladilar, narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladilar	2	NA	1
15	Yurib va yugurib	Bolalar maydonchani bir tomonida terib qo'yilgan stullarda o'tiradilar. Tarbiyachi	4	NA	2

	o'ynaladigan o'yinlar	qarama-qarshi tomonda turadi. U: "Yugurib keling oldimga, hammangiz – hammangiz, yugurib keling oldimga!" – deydi. Bolalar tarbiyachiga qarab yugurishadi. Bolalar tarbiyachining yonida to'plangach, u maydonchanning narigi tomoniga ketadi. U tomondan turib, yana: "Yugurib keling oldimga!" – deb, bolalarni chaqiradi			
16	Qushcha va uning bolalari	Bolalar besh-oltitadan bo'lib, guruh-guruhga bo'linadilar. Har bir guruh o'z uychasiga – iniga ega bo'ladi: (bo'r bilan chizilgan doira, polga tashlab qo'yilgan katta chambarak, ikki uchi qo'shib qo'yilgan arqoncha va hokazolar in bo'lishi mumkin). Bolalar cho'qqayib o'tirishadi – qushchani ifodalashadi: don cho'qishadi, erni titkilashadi. Tarbiyachi qushcha bo'ladi. Uning: "Qani uchdik, qanot qoqdik, uchaylik katta sayr qilaylik", - degani bilan bolalar inlaridan qanot qoqib uchib chiqadilar va uzoqroq kelishga harakat qiladilar. Tarbiyachi: "Sayr tamom bo'ldi, endi uyga qaytamiz", - deb qichqiradi. Shunda hamma bolalar xayrashib o'z inlariga uchib keladilar. O'yin uch-to'rt marta takrorlanadi	2	NA	1
17	Kim sekinroq	Bolalar tarbiyachi bilan birga bir tomonga borishadi. Kutilmagan vaqtda tarbiyachi: "Qani hozir biz kim juda sekin, oyoq uchida yura olishini bilib olamiz", - deydi. (Qanday yurish kerakligini ko'rsatib beradi). Bolalar iloji boricha oyoq uchlarida shovqin chiqarmasdan yurishga harakat qiladilar. Ular belgilangan tomonga qarab yuradilar. Tarbiyachi bilintirmasdan chetga chiqib: "Endi hammangiz menga qarab chopinglar", - deydi. Bolalar tarbiyachiga qarab chopadilar va uni o'rab oladilar. Tarbiyachi ularni quchoqlab gaplashadi va bir vaqtda sezdirmasdan sekin yurib boradi. Mashqni to'g'ri bajargan bolalarni maqtaydi, qolganlarini huddi shunday bajarishga undaydi. O'yin uch-to'rt marta takrorlanadi.	2	NA	1
18	O'rmalab o'tish va tirmashib chiqish	Sichqonlar omborxonada Maymunchalar Ehtiyot bo'l Quyonchalar Kurk tovuq va jo'jalar Chiziqni bosma Qorovul Kim ko'p	2	NA	1

	o'yinlari	tasma tera oladi 3			
19	Irg'itish va ilib olish o'yinlari Xaltachani kim irg'ita oladi?	Bolalar zal (maydoncha)ning bir tomonida polga chizilgan to'g'ri chiziq yoki tashlab qo'yilgan arqonchani narigi tomonida turadilar. O'yinda qatnashayotgan har bir bola bittadan xaltacha oladi. Tarbiyachining ishorasi bilan bolalar sal engashgan holda xaltachani irg'itadilar. Har bir bola o'z xaltachasini qayerga tushishini diqqat bilan kuzatib turadi. Navbatdagi signal berilishi bilan bolalar xaltachalarini olib kelgani yugurib ketadilar, borib xaltachalarni oladilar, xaltacha tushgan joyga o'zlari turib oladilar. Tarbiyachi xaltachani hammadan uzoqroqqa irg'itgan bolani ta'kidlab o'tadi. Bolalar dastlabki joylariga qaytib O'yinni guruhlarga bo'lib o'tkazgan ma'quldir. Bir guruh o'yinga baho berilib bo'lgandan keyin, ikkinchi guruh o'yinga tushadi. O'yin 6-7 marta takrorlanadi.	2	NA	1
20	Tevarak atrofni bilish o'yinlari Toping-chi nima qichqirayapti	Bolalar doira markaziga orqa o'girib davra qurib turadilar. Tarbiyachi doira ichida bo'ladi. U o'yinga boshchi tayinlaydi. Boshchi ham doiraning o'rtasiga turib oladi va qandaydir birorta uy hayvonlariga yoki qush ovozigga taqlid qilib qichqiradi. Shundan keyin hamma bolalar doira ichiga qarab o'griladilar. Tarbiyachi kimni taklif qilsa, o'sha bola hozir nima qichqirganligini topadi. So'ngra yangi boshlovchi tayinlanadi. O'yin 5-6 marta takrorlanadi.	2	NA	1
21	O'rta guruhda olib boriladigan harakatli o'yinlarning mohiyati va mazmuni	Besh yoshli bolalar uch to'rt yoshli bolalarga nisbatan ancha mustaqil va faol bo'ladilar. Ularning harakatlari ancha chaqqon, izchil, epchil bo'ladi. Hayot tajribalari nisbatan keng va mazmunli bo'lib, narsa va predmetlar, fazo bo'shlig'ida o'zining turgan joyini aniqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ularni endi oddiy harakatlar o'zi qoniqtirmaydi, balki harakatlarning natijasi qiziqtiradi: tez va chaqqon yuradi, chopadi, kim uzoqroq sakraydi, to'pni ilib oladi va hokazolar. Shuning uchun ham besh yoshli bolalar bilan harakatli o'yinlar tashkil qilganda, bu o'yinlar	2	NA	1

		<p>ancha murakkab va mazmunli bo'lishi lozim. Qo'yiladigan talabalar ham ancha murakkablashadi. O'yin jarayonida qo'yiladigan talabalarni, o'yin qoidalarini bolalar so'zsiz bajarishlari talab qilinadi</p>			
22	<p>Yugurish o'yinlari Samolyotlar Uysiz quyon O'rmondagi ayiq</p>	<p>O'yin sport zali yoki sport maydonida o'tkaziladi. Qatorning turishi samolyot shakliga o'xshagan bo'lishi kerak. Rahbarning: "Uchishga tayyorlaning!" - degan signali bilan bolalar qo'llarini samolyot paraklariga o'xshatib harakatlantiradilar. "Uchinglar!" komandasi berilganda esa, bolalar quloch yozib har tomonga yugurib ketadilar. "Samolyotlar, erga qo'ninglar!" komandasi bo'lganda esa, o'ynovchilar o'z joylarini topib, qatorga turadilar. Rahbar qaysi qator tezroq saf tortgani va qaysi bola o'z o'rnini egallaganini kuzatib turadi. Birinchi bo'lib, o'z joyini topgan bola birinchi o'rinni egallaydi.</p> <p>Ikki boshqaruvchidan boshqa o'yinchilar 3-5 kishilik guruhlarga bo'linadilar. Har qaysi guruh qo'l ushlab aylana hosil qiladi. Aylanalar maydonchani har er har erida bir-biridan 3-6, qadam narida bo'ladi. Har qaysi aylana uy hisoblanib, uning o'rtasiga birinchi raqamli o'yinchilar turib, quyon nomini oladilar. Boshqaruvchilardan biri ovchi, ikkinchisi esa uysiz quyon bo'ladi. Tarbiyachining signali bilan uysiz quyon ovchidan qochib ketadi va u o'zi yashagan uyga kirib olishi mumkin, ammo u erdagi quyon tezda qochib chiqishi lozim, ovchi bo'lsa, undan chiqqan quyonni ta'qib qilishda davom etadi. Ovchi quyonni tutib olsa, u holda ular o'rin almashadilar.</p>	4	NA	2
23	<p>Sakrash o'yinlari Quyonlar bilan bo'ri Kul rang quyon yuvinyapti</p>	<p>O'ynovchilar quyonlarni, ulardan biri bo'rini aks ettiradi. Maydonchani bir tomonidan quyonchalar o'z uychalarini belgilashadi. Qarama-qarshi tomonda bo'ri – jarlikda yashirinadi. Tekstga muvofiq harakat qilib quyonlar uychalaridan sakrab-sakrab chiqadilar, maydoncha bo'ylab yugurib, dam ikki oyoqlab sakraydilar, dam cho'qqayib o'tirib o't yuladilar. Tarbiyachi "bo'ri" so'zini</p>	2	NA	1

		<p>aytishi bilan bo'ri jarlikdan sakrab chiqadi va quyonlarni quvlab ketadi. Bo'ri ularni tutishga (qo'lini tegizishga) harakat qiladi. Quyunchalar o'z uylariga qochib ketadilar. Bu erda endi bo'ri ularni tutishi mumkin emas. Tutilgan quyonlarni bo'ri o'z iniga – jarlikka olib ketadi. O'yin qaytadan tiklanadi. Kelishib olinganiga muvofiq bo'ri 2-3 quyonni tutgandan keyin bo'ri vazifasiga boshqa o'yinchi tayinlanadi.</p> <p>Barcha o'ynayotganlar davra qurib turadilar. Quyon qilib tayinlangan bola davra o'rtasida turadi. Quyon tekstga yarasha harakatlari qiladi. Keyin u bolalardan birortasining oldiga ikki oyoqlab sakrab-sakrab keladi. Quyon kimning oldiga kelib to'xtagan bo'lsa, o'sha bola doiraning o'rtasiga kelib turadi. O'yin 5-6 marta takrorlanadi.</p>			
24	<p>Uloqtirish va ilish o'yinlari</p> <p>Ot-il</p> <p>Koptokni teshikdan o'tkaz</p> <p>To'qmoqni (ur) yiqit</p>	<p>Bolalarning har biri qo'liga bittadan koptok ushlab xona yoki maydoncha bo'ylab tarqalib turishadi. Tarbiyachining "Boshlang!", - degan ishorasi bo'yicha bolalar qo'llaridagi koptokni tepaga irg'itib, uni yana ilib ola boshlaydilar. Har bir bola koptokni necha marta erga tushirmasdan ilib olishini sanaydi.</p> <p>O'ynovchilarning kichik bir guruhi (2-8 kishi) bolaning tepada qo'li bilan tortib turgan to'rning ikki tomonida (to'rdan kamida 1-1,5 m masofada) turadi. Keyin bolalar koptokni bir-birlariga ota boshlaydilar. Agar o'yinda to'rt va undan ortiq bola qatnashayotgan bo'lsa, bir bola koptokni to'rdan oshirib irg'itadi, koptokni tutib (ilib) olgan bola uni o'z yonidagi sherigiga tashlaydi, u esa koptokni yana to'rdan oshirib otadi.</p> <p>O'ynovchilar chiziqning narigi tomonida turadilar, chiziqdan 2-3 m. narida har bir bola qarshisiga to'qmoq qo'yiladi. Bolalarning qo'llarida koptok bo'ladi. Bolalar signal bo'yicha qo'llaridagi koptokni to'qmoqqa qarab yumalatib, uni urib yiqitishga harakat qiladilar. Navbatdagi signal berilishi bilan ular borib koptoklarni olib keladilar, yiqitilgan</p>	4	NA	2

		to'qmoqlarni turg'azib qo'yadilar. O'yin takrorlanadi. Har kim o'zicha to'qmoqni necha marta urib yiqitilganligini hisoblab boradi.			
25	Bo'shliqda chamalash o'yinlar Kim ketdi Qayerga yashirilganini top	<p>Bolalar davra qurib yoki yarim doira shaklida turadilar. Tarbiyachi o'yinda qatnashayotgan bolalardan biriga o'z yonida turgan (5-6) bolalarni eslab qolishni, keyin honadan chiqib turishni yoki burilib ko'zini yumib turishni taklif qiladi. Bolalardan biri yashirinib oladi. Keyin tarbiyachi: "Qani, topchi, kim yo'q?", - deydi. Agar bola topsa, uning o'rniga boshqa bola tayinlanadi. Agar topa olmasa, yana o'girilib turadi va yashiringan bola joyiga qaytib turadi. Keyin topuvchi bola uning nomini aytishi lozim. O'yin 4-5 marta takrorlanadi.</p> <p>Bolalar xona bo'ylab turadilar. Tarbiyachi bolalarga bayroqchani ko'rsatib, hozir uni yashirib qo'yishni aytadi. Bolalar o'girilib, yuzlarini devorga burib turadilar. Tarbiyachi bayroqchani yashiradi va "Bo'ldi", - deydi. Bolalar yashirilgan bayroqchani qidiradilar. Bayroqchani birinchi bo'lib topgan bola o'yin takrorlangan vaqtda uni yashiruvchi bo'ladi. O'yin 3-4 marta takrorlanadi.</p>	2	NA	1
26	Ermak o'yinlari Obruchdan - obruchga (gardish) Bog'la ech	<p>Bolalar ikki guruhga bo'linib, qarama-qarshi tomonga turib oladilar. Ular o'rtasiga butun maydoncha bo'ylab doirachalar chizadilar (ular orasidagi masofa turlicha: 10, 20, 30, 40 sm. bo'lishi mumkin). Tarbiyachi maydonchani u yoki bu tomonidan bir necha bolalarni chaqiradi. Bolalar doirachadan-doirachaga sakrab, maydonchani boshqa tomoniga etib boradilar. Hamma ishtirokchilar sakrayotganlar mashqlarni to'g'ri yoki noto'g'ri bajarayotganliklarini kuzatib turadilar. Keyin ishtirokchilar sakraydilar.</p> <p>Bu o'yinda 10-12 ta bola ishtirok etadi. Bolalar 2 qatorga parallel bo'lib, turib oladilar. Komandadan 2-3 m. uzoqroqda ikkita stulcha qo'yilgan, stulchalarga rangli</p>	2	NA	1

		lentalar bog'lab qo'yiladi. Signal bo'yicha birinchi turgan bolalar shu lentalarni echib, o'zidan keyingi bolaga beradi, o'zi esa uning orqasiga turib o'tib oladi. Lentani olgan bola yugurib borib stulchaga lentani bog'lab ketadi. Boshqa bolalar ham huddi shu vazifani bajaradilar. Boshlovchi bola birinchi bo'lib tursa, shu komanda yutib chiqqan bo'ladi.			
27	O'zbek xalq o'yinlari Oq terakmi, ko'k terak Kim tezroq olib keladi Bo'ri va echki	<p>Bolalar barobar ikki komandaga bo'linib, zal yoki maydonning ikki qaramaqarshi tomonida saf tortib, komanda a'zolari bir-birlari bilan qo'l ushlab turadilar. Rahbarning signali bilan komandalardan biri ikkinchi komandaga qarab: "Oq terakmi, ko'k terak?" – deydi. Ikkinchi komanda ularga javoban: "Bizdan sizga kim kerak?" – deydi. Birinchi komanda: "falanchi kerak", - deb qarshi komanda bolalaridan birining nomini aytadi. Nomi aytilgan bola komanda tomonga yuguradi. U qo'l ushlab turgan bolalarning qo'lini uzishi kerak. Agar uzolsa, shu qo'li uzilgan bolalardan birini o'z komandasiga olib ketadi. Agar uza olmasa, o'zi shu komandada qoladi. Belgilangan vaqt ichida qaysi komanda ko'proq bola to'plasa shu komanda yutgan hisoblanadi.</p> <p>O'yinda 12-15 ta bola ishtirok etadi. O'ynovchilar chizilgan chiziqcha bo'ylab turib oladilar. Tarbiyachi to'pni oldinga otadi. Bolalar chiziqdan o'tib, to'pni tutishga harakat qiladilar. To'pni ushlay olgan bola, to'p bilan chiziq tomon yugurib ketadi. Yo'lda yugurib kelayotganida o'ynovchilardan kimning qo'li tegsa, ushlagan bola ko'ptokni erga tashlashi kerak. To'pni xohlagan o'yinchi olishi mumkin. Kimki to'pni chiziqqacha qo'ldan bermay olib kelsa, u boshqaruvchi bo'ladi va to'pni otish huquqiga ega bo'ladi. Kim ko'p boshqaruvchi bo'lsa, o'sha bola yutgan hisoblanadi.</p> <p>Sanoq o'yini bilan bolalar bo'ri va echkini saylaydilar, qolganlari esa cho'pon bo'ladilar. Cho'ponlar qo'l ushlab aylana bo'ylab</p>	4	NA	2

		<p>harakat qilishadi. Aylana ichida echki o'tlab yuradi. Bo'ri echkini tutishi lozim, lekin echkini tutib olish uchun doira ichiga faqat darvoza orqali kirishi kerak (ikki bola qo'llarini yuqori ko'targan holda harakatda darvozani aks ettirishadi), echki esa, xoxlagan joyida o'tlab yuradi. Bo'ri echkini ushlab olgandan keyingina o'yin qaytadan boshlanadi. O'yin qoidasi: bolalar doira bo'lib, qo'l ushlagan holatda harakat qilishadi. Echki faqat doira ichida o'tlab yuradi. Bo'ri esa echkini faqat doira ichida ushlab olishi shart.</p>			
28	<p>Sayr vaqtida bajariladigan sport elementlari bo'lgan o'yin va o'yin mashqlar</p> <p>To'p bilan bajariladigan (futbol elementlari bo'lgan) o'yin mashqlari "Chaqqon bolalar"</p>	<p>O'ynovchilar juftliklariga bo'linib maydon bo'ylab bir-birlariga halaqit bermaydigan holda erkin joylashadilar. Har bir juftda bittadan tup bo'ladi. To'pni 3-m masofada turib bir-biriga o'ng hamda chap oyoq bilan uzatish topshirig'i beriladi.</p>	2	NA	1
29	<p>Xalq harakatli o'yinlarini tashkillashtirish va o'tkazishda qo'yiladigan pedagogik talablar</p>	<p>Harakatli o'yinlarni o'tkazishda o'qituvchining tashkilotchi va tarbiyachi sifatidagi roli juda mas'uliyatlidir. O'yinni o'rgatish jarayoni shunday uyushtirilishi kerakki, unda bolalarga o'zaro o'rtoqlarcha munosabatda bo'lish, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish tuyg'ulari singdirilsin</p>	2	NA	1
30	<p>To'p bilan bajariladigan (basketbol o'yini elementlari bo'lgan) o'yin mashqlari</p>	<p>"To'pni to'rdan oshirib" O'ynovchilar tarang qilib tortilgan to'rning ikki tomoniga yoki undan 2-2.5 m narida joylashadilar va to'pni turli usullar bilan pastdan, bosh orqasidan yuqoridan tashlaydilar 73 "Yuqoriga otib ilib ol" Bolalar maydon bo'ylab jamlanadilar va to'pni yuqoriga otib chapak chalib ilib oladilar. To'pni shunday balandlikka otish kerakki, to'p tushguncha chapa chalib ilib olish mumkin bo'lsin. "To'pni savatga" O'ynovchilar savat oldida kichikroq yarim doira hosil qilib joylashadilar va turli usullar bilan ko'krakdan ikki qo'llab, bosh orqasidan, pastdan to'p tashlaydilar.</p> <p>"To'p uzatish" Bolalar juftlarga bo'linib,</p>	2	NA	1

		ko'krakdan ikki qo'llab bir-birlariga to'p tashlaydilar. To'pni qo'l bilan barmoqlarining uchi bilan, ko'kkrakka yopishtirmay ilib olishi kerak. "Past-baland" To'pni turgan joydan o'ng va chap qo'lda urib turish, bunda to'pning sakrash balandligini o'zgartirish yoki past-baland qilish lozim.			
31	Volan va raketka bilan bajariladigan o'yin mashqlari (badminton o'yini elementlari bilan)	"Yuqoriga otib, ilib ol" O'ynovchilar volanni yuqoriga otib, uni ikki qo'llab, so'ngra bir qo'llab ilib olishga harakat qiladilar. 74 Keyingi topshiriq – volanni yuqoriga o'ng yoki chap qo'l bilan otish va chap yoki o'ng qo'l bilan ilib olishdir. Volanni bir-biriga 2 m masofadan tashlash va ikki hamda bir qo'l bilan ilib olish. "Volanni oshir" O'ynovchilar maydon bo'ylab erkin joylashadilar va volanni raketka bilan uzatib, maydonning bir tomonidan ikkinchi tomoniga o'tadilar. "Volanni urib qaytar" O'ynovchilar bir-birlaridan 2 m uzoqlikda juft juft bo'lib joylashadilar, ularning har birida bittadan raketka va ikki kishiga bittadan volan. O'ynovchilardan biri volanni tashlaydi, ikkinchisi uni raketka bilan urib qaytaradi, so'ngra ikkinchi o'yinchi tashlaydi, birinchi o'yinchi urib qaytaradi.	2	NA	1
32	"Koptokni savatga tushirish", "Koptokni boshda olib yurish" o'yinlariga o'rgatish.	Qatnashchilar 3-4 gurruhga bo'linadi. Guruhlar soniga qarab 3-4 metr nariga ustunlar yoki daraxtlarga shuncha savat qo'yiladi. Savatga koptokni birinchi to'g'ri tushirganlar oldinga qarab siljib boradi. Birinchi bo'lib to'pni savatga to'g'ri tushirgan jamoa g'olib deb topiladi.	2	NA	1
33	O'yin mashqlari va sakrashi bo'lgan estafetalar	"Do'ngdan-do'nga" O'ynovchilar start chizig'i oldida uch qator bo'lib turadilar. Har bir qatordan 10 m masofada chiziq tortiladi yoki hajmi 25-30 smli tekis gardishlar (6-8 dona) tashlab qo'yiladi. Tarbiyachining buyrug'iga binoan o'ynovchilar gardishdan gardishga sakray boshlaydilar. Marra chizig'iga etib borgach, orqalariga yugurib qaytadilar. Sakrashni keyingi qatnashchi boshlaydi. Topshiriqni tez va to'g'ri bajargan (chetga chiqib ketmagan) qator g'alaba qiladi.	2	NA	1

		<p>“Pingvinlar” O‘ynovchilar dastlabki chiziq oldida ikki qator bo‘lib saflanadilar. Birinchi bo‘lib turgan o‘ynovchilarda bittadan qum solingan xaltacha bo‘ladi. Tarbiyachining ishorasiga binoan xaltachani tizzalarini orasiga qisib olib ikki oyoqda gardishgacha sakrab boradilar, keyin uni qo‘llariga olib o‘z qatorlariga yugurib kelib xaltachani keyingi o‘yinchiga beradilar. O‘zlari esa qatorning oxiriga kelib turadilar.</p>			
34	<p>To‘p bilan bajariladigan o‘yin mashqlari va estafetalar (katta hamda kichik to‘p bilan)</p>	<p>“To‘p maktabi” O‘ynovchilar uch-to‘rt qator bo‘lib bittadan katta xajmli to‘p bo‘ladi. Har bir qator oldiga gardish qo‘yiladi (hajmi 50 sm). Tarbiyachining ishorasiga binoan birinchi o‘ynovchi to‘pni gardish ichiga uradi va uni ikki qo‘lda ilib olish uchun o‘zidan keyingi bolaga uzatadi, o‘zi esa yugurib borib qatorning oxiriga borib turadi va hokazo. Qatorda birinchi bo‘lib turgan bola yana birinchi bo‘lib qolsa, qo‘liga to‘pni olib bosh uzra ko‘taradi. “To‘p devorga” Komanda uch-to‘rt qator bo‘lib 3 m berida devorga qarab turadilar. Ishoraga ko‘ra birinchi bo‘lib turgan o‘yinchilar to‘pni devorga urib, uni erdan sakrab chiqqandan so‘ng ilib oladilar va ikkinchi turgan o‘yinchiga uzatadilar, o‘zlari esa yugurib o‘z qatorlarining oxiriga borib turadilar. “To‘p ketidan tez yugur” O‘ynovchilar tarang tortilgan to‘r (chizimcha) oldida (0.5 metr berida) saf tortib turadilar. To‘pni to‘r ustidan oshirib tashlab, o‘zlari uning ostidan tezgina o‘tadilar va to‘p erdan sakrab chiqqandan so‘ng ilib oladilar. Shundan keyin topshiriqni ikkinchi safdagilar bajaradilar. Mashqni bajarishda kam jarima olgan (to‘pni ushlay olingan) komanda g‘olib chiqadi.</p>	2	NA	1
35	<p>“Velosipedchilar estafetasi”</p>	<p>Ishtirokchilar yosh guruhlariga bo‘linadi. Masofa belgilanadi, aylanib kelish joyiga bayroqcha o‘rnatiladi. Tarbiyachining buyrug‘i bilan poyga boshlanadi. Navbat bilan ishtirokchilarga o‘rin beriladi. Qaysi jamoa qisqa vaqt ichida bajargan g‘olib deb topiladi.</p>	4	NA	1

36	“Quvnoq rassomlar” o‘yiniga o‘rgatish.	Guruh ikkiga bo‘linadi va ularga topshiriq beriladi. Doskaga kuchukning rasmini chizishlari kerak. Rahbarning ishorasidan keyin o‘yinchingining ko‘zi bog‘lanadi. O‘yinchi doska oldiga borib, kuchukning rasmini chizish uchun boshini chizib keladi. Qolgan o‘yinчилar navbat bilan tanasining boshqa qismini chizishni davom ettiradi. Qaysi guruh rasmni birinchi bo‘lib tugatsa g‘olib hisoblanadi.	2	NA	1
37	To‘p bilan o‘ynaladigan o‘yin	1. “To‘p uchun kurash”. O‘yin qatshchilari ikki komandaga bo‘linadilar. Ularda biri-yengil koptok o‘ziga tez tortmandigan bo‘lishi kerak (yoki futbol kamerasi). O‘sha komandani o‘yinчилari, xoxlagan yo‘nalishda, bir biriga to‘pni otishib harakatlanadilar. Ikkinchi komanda esa birinchidan uni olib qo‘yishga harakat qiladi. 2. “Doira bo‘ylab to‘pni uzatish”. O‘ynovchilar suvni tagida turadilar va bir biriga to‘pni otishni boshlaydilar. 3. “Suvda voleybol o‘yini”. O‘ynovchilar doira bo‘ylab turadilar, qo‘lda zarba berib to‘pni bir-biriga oshiradi, uni xavoda imkon boricha ko‘proq vaqt ushlab turishga harakat qiladi.	2	NA	1
38	Milliy o‘yinlarga o‘qituvchining o‘yinga tayyorlanishi	Yaxshi tanlangan o‘yin muvaffaqiyatli ta‘lim va tarbiya berishning muhim sharti bo‘lib hisoblanadi. O‘qituvchi o‘yinni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan qiladigan ishlaridan o‘yinga qatnashuvchilarning tarkibini, ularning yosh xususiyatlarini, shuningdek, jismoniy tayyorgarligini hisobga olib, dars oldiga qo‘yiladigan asosiy vazifalarni aniqlab chiqishi zarur	2	NA	1
